



XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 1-avgust

VII-13-90-7-101-K/25

Pastdarg‘om tumani

2025-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli “Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 8-iyuldagi 01-33/533-sonli xatini hamda tuman mahalliy budgetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya xulosalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asoslanib, xalq deputatlari Pastdarg‘om tuman Kengashining o‘n uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Pastdarg‘om tuman hokimligining tuman mahalliy budgetining qo‘shimcha manbalardan shakllangan mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budgetining 2025-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan 1440,0 (bir milliard to‘rt yuz qirq) mln.so‘m mablag‘ “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga o‘tkazish uchun ilovaga asosan tuman hokimligiga ajratilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Maxmanazarov)ga tuman mahalliy budgetining rejasiga tegishli o‘zgartirish kiritish va tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (U.Amirov)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (G‘.Berdiyev)ga ajratilgan mablag‘larni “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha

doimiy komissiyasi raisi B.Ochilov va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari –
Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Pardayev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



XOLMURATOVA
FLORA
UBAYDULLAYEVNA

Xalq deputatlari Pastdargʻom tumani
Kengashining
2025-yil 1-avgustdagi
VII-13-90-7-101-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib
bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan
mablagʻlar miqdori**

T/r	Mablagʻ ajratilgan tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratilgan mablagʻ miqdori (ming.soʻm)	Asos
Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi:			4 792 022	x
1	1 440 000	“Fuqarolar tashabbusi” jamgʻarmasiga	1 440 000	Tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimining xati
Jami ajratilgan mablagʻ:			1 440 000	x
Qoldiq			3 352 022	x